

JAHON URUSHI DAVRIDA MARKAZIY OSIYONING SANOAT VA MUDOFAA TIZMIGA AYLANISHI (1939–1945)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20666380>

O`zganboyeva Mushtariy Qosimjon qizi

Unversit of Business and Science,

Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar fakulteti, 3-bosqich talabasi

+998883460188

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) yillarida Markaziy Osiyoning SSSR sanoat va mudofaa tizimiga aylanish jarayonini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqola quyidagi asosiy bo'limlardan iborat:

Kirish-bo'limida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan. Unda Markaziy Osiyoning urushdagi roli sovet tarixshunosligida uzoq vaqt ikkinchi darajali deb talqin qilinganligi, ammo so'nggi tadqiqotlar bu rolni qayta ko'rib chiqish zaruriyatini ko'rsatayotganligi qayd etilgan. Adabiyotlar tahlili-bo'limida mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar ikki guruhga ajratilgan: sovet va postsovet tarixshunosligi (asosan iqtisodiy jihatlariga qaratilgan), G'arb tarixshunosligi (mikrotarix va ijtimoiy antropologiyaga asoslangan). Metodologiya-bo'limida tadqiqotda qo'llanilgan metodlar tavsiflangan: tarixiy-genetik metod (jarayonlarni xronologik ketma-ketlikda o'rganish), qiyosiy-tarixiy metod (Markaziy Osiyo respublikalarini va boshqa evakuatsiya mintaqalari bilan taqqoslash), tizimli tahlil (sanoat, mehnat resurslari, transport va ijtimoiy infratuzilmani bir butun sifatida o'rganish) yoritilgan. Muhokama-bo'limida tadqiqot natijalarining oldingi tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlili keltirilgan. Evakuatsiyaning strategik ahamiyati va uning cheklovlari, mehnat resurslaridan foydalanishdagi ziddiyatli jihatlar, mudofaa ishlab chiqarishining hajmi va samaradorligi, "g'alaba narxi"ning ijtimoiy, demografik va ekologik jihatlari muhokama qilingan. Natija-bo'limida tadqiqotning asosiy faktik topilmalari jamlangan: evakuatsiya qilingan korxonalarining soni va joylashuvi, ishlab chiqarilgan harbiy mahsulotlar hajmi, mehnat resurslari tarkibidagi o'zgarishlar, ayollarning ishtiroki darajasi, shaharlarning o'sish sur'atlari, shuningdek, urush davri sanoatlashtiruvining salbiy oqibatlari (mehnat sharoitlari, kasallanish, ekologik ifloslanish) raqamli ko'rsatkichlar bilan bayon qilingan.

Kalit so`zlar

1939-1942 yillar, SSSR, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Ikkinchi jahon urushi, mikrotarix, evakuatsiya, deportatsiya, ijtimoiy antropologiyaga,

Kirish

Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) insoniyat tarixidagi eng keng ko'lamli va halokatli to'qnashuv bo'lib, unda 60 dan ortiq davlat ishtirok etgan va 70–85 million kishi hayotdan ko'z yumgan. Ushbu urush davrida SSSRning sharqiy hududlari – Ural, Sibir, Volga bo'yi va Markaziy Osiyo – nemis qo'shinlari bosib olgan g'arbiy hududlardan evakuatsiya qilingan sanoat salohiyatini qabul qilish va mudofaa ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish markazlariga aylangan. Sovet tarixshunosligida uzoq vaqt davomida urushdagi g'alaba asosan Ural va Sibir sanoatining hissasi bilan izohlangan bo'lsa, Markaziy Osiyoning roli ikkinchi darajali yoki faqat xomashyo bazasi sifatida talqin qilingan. Biroq, so'nggi o'n yilliklarda arxivlarning qisman ochilishi va metodologik yondashuvlarning o'zgarishi ushbu mintaqaning strategik ahamiyatini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini tug'dirmoqda. [4].

Urush yillarida SSSRning Yevropa qismidagi yirik sanoat markazlari ishg'ol xavfi ostida qolgan bir paytda, Markaziy Osiyo mintaqasi ittifoqning muhim sanoat va mudofaa tayanchiga aylandi. 1941–1942 yillarda yuzlab korxonalar Ural ortidan O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'izistonga evakuatsiya qilindi. Mazkur maqolada an'anaviy tarixshunoslikdan farqli ravishda mintaqaning sanoat va mudofaa salohiyatiga aylanishi jarayoni uchta yangi g'oya asosida tahlil qilinadi: birinchidan, mahalliy mehnat resurslarining passiv emas, balki faol va transformativ roli; ikkinchidan, harbiy sanoat va fuqarolik ishlab chiqarishi o'rtasidagi sintez – masalan, paxta zavodlarining qurol-yarog' yig'uv liniyalariga aylanishi; uchinchidan, urush davridagi sanoat siljishining urushdan keyingi modernizatsiyaga yotqizgan poydevori. Shu tariqa maqolada Markaziy Osiyo nafaqat sovet mudofaasining orqa qismi, balki jahon urushlari davridagi faol sanoat eksperimenti va mintaqaviy o'zgarishlar maydoni sifatida talqin etiladi. [3].

Adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda, ayniqsa Qozog'iston va G'arb tadqiqotchilari tomonidan Markaziy Osiyoning ikkinchi jahon urushidagi roli, xususan mudofaa sanoatining shakllanishi, evakuatsiya jarayonlari va mehnat resurslari masalalariga qiziqish ortgan. Ushbu yo'nalishda, ayniqsa, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar diqqatga sazovor. Roja Jarkinbayeva, Meruyert Doskaliyeva va Ardak Abdiraimovalarning ishlari mavzuning markazida turadi. Evakuatsiya va

sanoatlashtirish: Ardak Abdiraimovanning tadqiqotlari Qozog'istonda urushdan oldin o'q-dorilar ishlab chiqarilmaganligi, ammo evakuatsiya qilingan korxonalar negizida minalar, torpedalar, artilleriya snaryadlari, dala radiostansiyalari kabi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi. Balkhash mis eritish zavodi negizida tashkil etilgan 517-sonli harbiy zavod bunga yorqin misoldir. Mehnatkashlarning kundalik hayoti: ushbu tadqiqotchilar mehnat sharoitlari, xavfsizlik qoidalarining buzilishi, qo'rg'oshin bilan zaharlanish holatlari kabi masalalarni o'rganib, "g'alabaning narxi"ni ijtimoiy jihatdan tahlil qiladilar. [1]. Arxiv materiallari: Qozog'iston Respublikasi Prezidenti arxivi (APRK) tomonidan nashr etilgan "Ochilgan urush" to'plami muhim manba hisoblanadi.

G'arb tarixshunosligi, asosan, mikrotarix va ijtimoiy antropologiya metodologiyasiga asoslanadi. Vikki Devisning "Central Asia in World War Two: The Impact and Legacy of Fighting for the Soviet Union" (Bloomsbury Academic, 2023) nomli asari ilk marotaba Markaziy Osiyoliklarining urushdagi roliga qaratilgan. Muallif 300 dan ortiq oddiy odamlarning hujjatlariga tayanib, evakuatsiya, majburiy deportatsiyalar (Qrim tatarlari, koreyslar) va "sovetlashuv" jarayonlarini juda batafsil tahlil qiladi. [2]. Roberto Karmakning "Kazakhstan in World War II: Mobilization and Ethnicity in the Soviet Empire" (University Press of Kansas, 2019) asari esa etnik va ijtimoiy tengsizliklar nuqtai nazaridan safarbarlik va mehnat frontini tahlil qiladi. Rbekka Menlining "To the Tashkent Station: Evacuation and Survival in the Soviet Union at War" (Cornell University Press, 2009) asari Toshkent evakuatsiyasini ijtimoiy-madaniy jihatdan yoritadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyo (asosan Qozog'iston, O'zbekiston, qisman Qirg'iziston va Tojikiston) hududining 1939–1945 yillar davomida SSSRning sanoat va mudofaa tizimiga aylanish jarayoni tarixiy-genetik, qiyosiy-tarixiy hamda tizimli tahlil metodlari asosida o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – urush yillarida mintaqaga evakuatsiya qilingan korxonalar negizida mudofaa sanoatining qanday tashkil etilganligi, mehnat resurslari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni aniqlashdan iborat. 1. Tarixiylik tamoyili – voqealarni aniq xronologik ketma-ketlikda, 1939–1945 yillar oralig'ida, urushdan oldingi, urush davri va urushdan keyingi boshlang'ich davr kontekstida ko'rib chiqish. 2. Tizimlilik tamoyili – sanoat evakuatsiyasi, mehnat safarbarligi, harbiy mahsulot ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma o'zgarishlarini bir-biri bilan bog'lab o'rganish. Urush yillarida evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari (masalan, Ukrainadan Olmaotaga, Rossiyadan Toshkentga ko'chirilgan zavodlar) negizida Markaziy Osiyoda mudofaa ishlab chiqarish zanjiri qanday bosqichma-bosqich shakllanganligini

aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu metod orqali 1941–1942 yillardagi ommaviy evakuatsiya, 1943–1944 yillardagi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va 1945 yildagi o'zgarishlar kuzatiladi. Mintaqaning turli respublikalari (Qozog'iston, O'zbekiston) yoki turli sohalari (og'ir sanoat, yengil sanoat, o'q-dorilar ishlab chiqarishi) o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashda ishlatiladi. Shuningdek, urushdan oldingi (1930-yillar sanoatlashtiruv) va urush davri sanoatlashuvini qiyoslash orqali mintaqaning harbiy-iqtisodiy rolidagi o'zgarishlar ochib beriladi. Tizimli tahlil metodi: Mudofaa tizimini bir butun sifatida (korxonalar, transport logistikasi, mehnat resurslarini boshqaruvchi davlat organlari, mahalliy hokimiyat, evakuatsiyalangan aholi) ko'rib chiqadi. Ushbu metod yordamida sanoat evakuatsiyasining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablari aniqlandi.[4].

Natijalar

Ushbu tadqiqot natijasida Markaziy Osiyoning Ikkinchi jahon urushi yillarida (1939–1945) SSSRning muhim sanoat va mudofaa tizimiga aylanish jarayoni quyidagi asosiy jihatlari bilan ochib berildi: 1. Strategik sanoat evakuatsiyasining muvaffaqiyati va cheklovlari. 1941–1942 yillarda SSSRning g'arbiy hududlaridan Markaziy Osiyoga 400 dan ortiq yirik sanoat korxonalari evakuatsiya qilingan. Ularning asosiy qismi Qozog'iston (200 ga yaqin) va O'zbekiston (150 dan ortiq) hududiga joylashtirilgan. Ushbu evakuatsiya nemis qo'shinlari bosib olgan hududlardagi sanoat salohiyatini saqlab qolish va urushning keyingi bosqichlarida mudofaa ishlab chiqarishini ta'minlash imkonini bergan. Biroq, dastlabki bosqichlarda transport, infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligi tufayli ishlab chiqarishning pasayishi kuzatilgan. 2. Mudofaa sanoatining shakllanishi. Evakuatsiya qilingan korxonalar negizida Markaziy Osiyoda o'q-dorilar (mina, snaryad, bomba), harbiy texnika (radioappaturalar, dala aloqa vositalari), aviatsiya ehtiyot qismlari, kimyo mahsulotlari va uniforma ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. [7]. 1943 yilga kelib mintaqa SSSR umumiy mudofaa ishlab chiqarishining taxminan 10–12 foizini ta'minlagan. Ayniqsa rangli metallurgiya (mis, qo'rg'oshin, rux) va paxta tozalash sanoati asosida harbiy mahsulotlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. 3. Mehnat resurslarining o'zgarishi. Urush yillarida Markaziy Osiyo sanoatida ishchilar soni 2,5 barobarga oshgan. Mehnat resurslarining tarkibi tubdan o'zgargan: malakali ishchilarning evakuatsiyalangan qismi, mahalliy aholi (asosan ayollar va o'smirlar) hamda maxsus ko'chirilganlar (deportatsiya qilingan xalqlar) mehnatidan foydalanilgan. Ayollarning sanoatdagi ulushi 1940 yildagi 30 foizdan 1944 yilga kelib 55–60 foizga ko'tarilgan. Biroq, mehnat sharoitlari og'ir (12–14 soatlik ish kuni, ovqat ratsionining yetishmasligi, xavfsizlik qoidalarining buzilishi) bo'lib, bu "g'alaba narxi" ning bir qismini tashkil

qilgan. 4. Ijtimoiy va demografik o'zgarishlar. Evakuatsiya tufayli Markaziy Osiyo shaharlari (Toshkent, Olmaota, Chimkent, Farg'ona) tez sur'atlarda o'sgan. Mintaqaga 3 millionga yaqin odam evakuatsiya qilingan. Bu mahalliy aholi va evakuatsiyalanganlar o'rtasida ijtimoiy-madaniy keskinliklarni keltirib chiqargan, shu bilan birga mintaqaning urbanizatsiyasi va infratuzilma rivojiga turtki bergan. [5]. 5. "G'alaba narxi" va salbiy oqibatlar. Urush davri sanoatlashtiruv quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelgan: Mehnat sharoitlarining og'irligi tufayli ishchilar orasida kasallanish va o'lim holatlarining ko'payishi (xususan qo'rg'oshin bilan zaharlanish); Ekologik muammolar (og'ir metallar bilan ifloslanish); Deportatsiya qilingan xalqlarning majburiy mehnati va ularning huquqlarining poymol etilishi; Qishloq xo'jaligi va an'anaviy iqtisodiy tarmoqlarning e'tibordan chetda qolishi. 6. Uzoq muddatli oqibatlar. Urush yillarida yaratilgan sanoat bazasi Markaziy Osiyoning urushdan keyingi rivojlanishiga asos bo'lgan. Ko'plab evakuatsiya qilingan korxonalar mintaqada qolib, 1950–1960 yillardagi sanoatlashtiruvning davom etishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, urush davridagi mehnat migratsiyasi va ijtimoiy o'zgarishlar mintaqaning demografik va madaniy qiyofasini o'zgartirgan. 7. Tadqiqotning asosiy xulosalari. Markaziy Osiyoning Ikkinchi jahon urushidagi roli ilgari e'tirof etilganidan ancha muhim bo'lgan. Mintaqa nafaqat strategik xomashyo bazasi, balki mudofaa sanoatining to'liq tarmog'iga ega hududga aylangan. Biroq, bu o'zgarishlar katta ijtimoiy, demografik va ekologik "narx" evaziga amalga oshirilgan. Urush yillaridagi sanoatlashtiruv tajribasi keyingi o'n yilliklardagi Markaziy Osiyoning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Muhokama

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, 1941–1942 yillardagi ommaviy evakuatsiya (400 dan ortiq yirik korxonalar, shundan 200 ga yaqini Qozog'iston va O'zbekistonga joylashtirilgan) nemis qo'shinlari bosib olgan hududlardagi sanoat salohiyatini saqlab qolish imkonini bergan. Biroq, Georgiy Kumanevning ta'kidlashicha, evakuatsiyaning dastlabki bosqichidagi tartibsizliklar, transport infratuzilmasining yuklanishi va korxonalarni joylashtirishda mahalliy sharoitlarni (masalan, elektr energiyasi, suv, issiqlik ta'minotining yetishmasligi) yetarlicha e'tiborga olinmagani ishlab chiqarishning pasayishiga olib kelgan. Masalan, ba'zi zavodlar 1942 yilning ikkinchi yarmigacha to'liq quvvatda ishlay olmagan. Markaziy Osiyo tabiiy resurslar (rangli metallar, paxta, oziq-ovqat) bilan boyligi evakuatsiya qilingan korxonalarni xomashyo bilan ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Ammo bu resurslarni qazib olish va qayta ishlash tez sur'atlarda kengaytirilgani ekologik va ijtimoiy oqibatlarga (masalan, qo'rg'oshin bilan zaharlanish) olib kelgan –

Jarkinbayeva va Abdiraiymova tadqiqotlarida qayd etilganidek. Tadqiqot mehnat resurslarining uch asosiy toifasini aniqladi: (1) evakuatsiyalangan malakali ishchilar va muhandislar; (2) mahalliy (asosan qishloq) aholi, xususan ayollar va o'smirlar; (3) maxsus ko'chirilganlar (deportatsiya qilingan xalqlar – Qrim tatarlari, koreyslar, chechenlar va boshqalar). [6]. Roberto Karmakning Qozog'istondagi tadqiqotiga mos ravishda, mahalliy aholi ishchi kuchining asosiy qismini tashkil qilgan bo'lsa-da, ular ko'pincha eng og'ir, kam haq to'lanadigan va xavfli ishlarda foydalanilgan. Masalan, qo'rg'oshin konlarida mahalliy qozoq ayollari va o'smirlari ishlagan, ularning ko'pchiligi mehnat sharoitlari tufayli kasallangan yoki nobud bo'lgan. Deportatsiya qilingan xalqlarning mehnatidan foydalanish alohida muhokamaga loyiq. Bir tomondan, ular sanoatning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini qondirgan; ikkinchi tomondan, ular ko'pincha lagerlar (trudarmiya) sharoitida, minimal erkinlik va ijtimoiy himoyasiz ishlashga majbur qilingan. Vikki Devis ta'kidlaganidek, bu jarayon sovet rejimining ham iqtisodiy samaradorlik, ham etnik-siyosiy nazorat maqsadlariga xizmat qilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, 1943 yilga kelib Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilayotgan harbiy mahsulotlar (o'q-dorilar, mina va snaryadlar, radioappaturalar, aviatsiya uchun ehtiyot qismlar) SSSRning umumiy mudofaa ishlab chiqarishining taxminan 10-12 foizini tashkil qilgan. Ayniqsa quruq batareyalar, porshli samolyot dvigatellari va dala radiostansiyalari bo'yicha muhim ulushga ega bo'lgan. [2].

Biroq, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatida muammolar mavjud edi. Urushning dastlabki bosqichida evakuatsiya qilingan korxonalarda malakali kadrlar yetishmasligi, mahalliy xomashyo standartlarga to'liq mos kelmasligi (masalan, ba'zi metall qotishmalarda) tufayli nuqsonli mahsulotlar ulushi yuqori bo'lgan. Keyingi yillarda, 1944-1945 ga kelib, sifat sezilarli yaxshilangan. Urush yillari Markaziy Osiyo shaharlari (Toshkent, Olmaota, Chimkent, Farg'ona) tez sur'atlarda o'sgan. Evakuatsiya qilingan aholi (3 millionga yaqin odam) mahalliy aholi bilan aralashib, o'zaro madaniy va ijtimoiy keskinliklarni keltirib chiqargan. Rbekka Menleyning "Toshkent stansiyasiga" asarida ta'kidlanganidek, mahalliy aholi evakuatsiyalanganlarga nisbatan dastlab iliq munosabatda bo'lgan bo'lsa-da, oziq-ovqat, uy-joy va infratuzilma tanqisligi keskinlikni oshirgan. Ayollarning sanoatda ishtiroki keskin ortgan. 1940 yilda Markaziy Osiyo sanoatida ayollar ulushi taxminan 30% bo'lgan bo'lsa, 1944 yilga kelib 55-60% gacha ko'tarilgan. Bu uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlariga olib kelgan – ayollarning mehnat bozoridagi mavqei mustahkamlangan, ammo ular bir vaqtning o'zida uy yumushlari va bolalar tarbiyasi bilan ham shug'ulangan. [3].

Xulosa

Umuman olganda, Markaziy Osiyoning Ikkinchi jahon urushidagi roli ilgari e'tirof etilganidan ancha murakkab, ziddiyatli va muhim bo'lgan. Mintaqa bir vaqtning o'zida strategik mudofaa tayanchi, majburiy mehnat manbai, ijtimoiy keskinliklar maydoni va ekologik ofatlar hududi edi. Urushdan keyingi Markaziy Osiyoning sanoat salohiyati, urbanizatsiyasi, demografik tarkibi va ijtimoiy tuzilishi aynan shu urush davri jarayonlarining bevosita natijasidir. Shuning uchun mintaqaning zamonaviy tarixini tushunish uchun ushbu davrni har tomonlama va tanqidiy o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1]. Jarkinbayeva R. Doskaliyeva M. Baygunakov D. Abdiraiymova A. Everyday Working Life of Workers of Industrial Factories of the Kazakh SSR During the Second World War // Codrul Cosminului. – 2025. – Vol. 31, No.
- [2]. Davis V. Central Asia in World War Two: The Impact and Legacy of Fighting for the Soviet Union. – London: Bloomsbury Academic, 2023. (nashrda)
- [3]. O'zbekistonning yangi tarixi. – 2-kitob. – Toshkent, 2000. – 456 b.
- [4]. Antufyev A. Uralskaya promyshlennost' nakanune i v gody Velikoy Otechestvennoy voyny [Ural sanoati Ulug' Vatan urushi arafasida va yillarida]. – Yekaterinburg, 1992. – 336 b.
- [5]. Xolmirzayeva G. Mo'minov T. Arxiv hujjatlarida Ikkinchi Jahon urushi davrida evakuatsiya qilingan bolalar taqdiri // Yangi O'zbekiston. – 2022. – 5-may .
- [6]. Rustamov D. World War II and Evacuation to the East // Oriens. – 2022. – 88-94 b.
- [7]. Burieva Kh. A. O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davridagi evakuatsiya tadbirlari tarixidan [On the History of Evacuation Measures in Uzbekistan during World War II] // Current Research Journal of History. – 2022. – 3(11), 18-23 .
- [8]. Abdiraiymova A. S. Maqolasi. Humanitarian and Pedagogical Research jurnali, 2024. – URL: <http://gpi.magtu.ru/en/archive-eng/69-no-3-2024/454-8-3-35-43.html> .
- [9]. Historical contribution of Uzbekistan in the victory over fascism. 1941-1945 (O'zbekistonning fashizm ustidan qozonilgan g'alabadagi tarixiy hissasi). – Toshkent, 1996. – 68 p.